

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

INGLIZ TILIDA BEVOSITA VA BILVOSITA KOMISSIV NUTQIY AKTLAR VA ULARNING FUNKSIONAL-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Po'latova O'g'ilxon Abduxaliqovna

Andijon davlat universiteti, doktorant.

e-mail: ziynat81@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-2757-0248>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi komissiv nutqiy aktlarning bevosita va bilvosita ifodalanish shakllari hamda ularning funksional-pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Nutqiy aktlar nazariyasi doirasida komissivlarning kommunikativ mohiyati, so'zlovchining kelajakdagi harakatga nisbatan majburiyatni o'z zimmasiga olishi va ushbu aktlarning muloqot jarayonidagi vazifalari yoritiladi. Tadqiqotda komissiv nutqiy aktlarning pragmatik talqini, ularning kontekstga bog'liqligi, muloyimlik strategiyalari bilan aloqasi va ingliz tilidagi amaliy qo'llanilishi misollar asosida ko'rib chiqiladi. Natijalar bevosita komissivlarning aniq va ochiq ifodalanishini, bilvosita komissivlarning esa pragmatik inferensiya va kontekst orqali anglashilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pragmatika, nutqiy aktlar, komissiv aktlar, bevosita komissivlar, bilvosita komissivlar, illokutiv maqsad, kommunikativ strategiya.

ПРЯМЫЕ И КОСВЕННЫЕ КОМИССИВНЫЕ РЕЧЕВЫЕ АКТЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И ИХ ФУНКЦИОНАЛЬНО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ

Пулатова Угилхон Абдухаликовна

Андижанский государственный университет, докторант.

Аннотация.

В данной статье анализируются формы прямых и косвенных комиссивных речевых актов в английском языке, а также их функционально-прагматические особенности. В рамках теории речевых актов рассматриваются коммуникативная сущность комиссивов, принятие говорящим обязательства на будущее действие и функции данных актов в процессе общения. В исследовании изучается прагматическая интерпретация комиссивных речевых актов, их зависимость от контекста, связь со стратегиями вежливости, а также их практическое использование в английском языке на примерах. Результаты показывают, что прямые комиссивы выражаются явно и открыто, тогда как косвенные комиссивы понимаются через прагматический вывод и контекст.

Ключевые слова: прагматика, речевые акты, комиссивные акты, прямые комиссивы, косвенные комиссивы, иллокутивная сила, коммуникативная стратегия.

DIRECT AND INDIRECT COMMISSIVE SPEECH ACTS IN ENGLISH AND THEIR FUNCTIONAL-PRAGMATIC FEATURES

Po'latova O'g'ilxon Abduxaliqovna

Andijan State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article analyzes the forms of direct and indirect expression of commissive speech acts in English and their functional-pragmatic features. Within the framework of speech act theory, the communicative essence of commissives, the speaker's commitment to a future action, and the functions of these acts in communication are examined. The study explores the pragmatic interpretation of commissive speech acts, their dependence on context, their relation to politeness strategies, and their practical use in English through examples. The results show that direct commissives are expressed explicitly and clearly, while indirect commissives are understood through pragmatic inference and context.

Keywords: pragmatics, speech acts, commissive acts, direct commissives, indirect

Kirish. Til insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning asosiy vositasi bo'lib, u nafaqat axborot uzatish, balki muayyan harakatlarni amalga oshirish imkonini ham beradi. XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan nutqiy aktlar nazariyasi tilning aynan shu funksional jihatini tadqiq etishga qaratilgan. Tilshunoslikda nutqiy aktlar nazariyasi pragmatikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning ilmiy asoslari J. L. Ostin va J. R. Syorl tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu nazariyaga ko'ra, inson gapirayotganda faqat ma'lumot uzatmaydi, balki va'da beradi, buyruq beradi, iltimos qiladi, taklif etadi yoki boshqa kommunikativ harakatlarni amalga oshiradi [1, 2].

Nutqiy aktlar tizimida komissiv aktlar alohida o'rin tutadi. Komissiv nutqiy aktlar so'zlovchining kelajakda muayyan harakatni bajarish majburiyatini o'z zimmasiga olishini ifodalaydi [2]. Bunday aktlar kundalik muloqotda, rasmiy hujjatlarda, siyosiy nutqlarda, reklama matnlarida hamda biznes kommunikatsiyasida keng qo'llaniladi.

Ingliz tilida komissiv aktlar turli grammatik va pragmatik vositalar orqali ifodalanadi. Ushbu vositalar qatoriga performativ fe'llar, modal fe'llar, kelasi zamon shakllari hamda kontekstga bog'liq implitsit ifodalar kiradi. Mazkur vositalar yordamida so'zlovchi o'z zimmasiga muayyan harakatni bajarish, va'da berish yoki kafolatlash kabi illokutiv maqsadlarini turli darajadagi aniqlik va bilvositalik orqali ifodalaydi. Shu bois komissiv nutqiy aktlar bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi bevosita va bilvosita komissiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning kommunikativ va funksional-pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Nutqiy aktlar nazariyasi dastlab J.Ostin tomonidan ishlab chiqilgan [1]. J.Ostin til vositasida harakatni amalga oshirish konsepsiyasini taklif etib, illokutiv akt tushunchasini va nutq aktlarining muvaffaqiyat shartlari (felicity conditions) ni joriy qilgan. Olim nutqiy harakatlarni lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlarga ajratgan. Keyinchalik J.Syorl illokutiv aktlarning tasnifini ishlab chiqib, nutq aktlarini besh toifaga (reprezentativ, direktiv, komissiv, ekspressiv, deklarativ) ajratgan holda nazariyani yanada takomillashtirgan [2]. J.Syorl komissivlarni alohida guruh sifatida tavsiflar ekan, unga ko'ra komissiv aktlarning asosiy vazifasi so'zlovchini kelajakdagi harakatni bajarishga majbur qilishdan iborat. Komissivlar orqali so'zlovchi o'zining niyati, mas'uliyati va majburiyatini namoyon qiladi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy (deskriptiv) metod, pragmatik tahlil metodi, qiyosiy tahlil metodi, kontekstual tahlil metodi, nutqiy aktlar nazariyasiga asoslangan lingvistik tahlil kabi metodlardan foydalangan holda komissiv nutqiy aktlarning bevosita va bilvosita ifodalanish xususiyatlari hamda ularning funksional-pragmatik jihatlari kompleks tarzda o'rganildi. Tadqiqot materiali sifatida ingliz tilidagi badiiy asarlar, kundalik muloqot namunalarini va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan komissiv nutqiy aktlar misollaridan foydalanildi.

Muhokama.

Komissiv nutqiy aktlar - adresantning kommunikativ jarayonda o'z zimmasiga muayyan majburiyatni olishi orqali kelajakda amalga oshirilishi (yoki, aksincha, amalga oshirilmaligi) lozim bo'lgan harakatni kafolatlashga qaratilgan nutqiy aktlar turidir. Bunday aktlarda adresant adresat oldida kelajakdagi xatti-harakatiga nisbatan ijtimoiy, axloqiy yoki institutsional javobgarlikni zimmasiga oladi va mazkur majburiyat nutqiy shakl orqali rasmiylashtiriladi. Komissiv aktlar doirasiga va'da berish (*promise*), qasam ichish (*swear*), kafolat berish (*guarantee*), ahd qilish (*vow*), taklif qilish (*offer*), tahdid qilish (*threaten*), zimmasiga olish (*undertake*) kabi nutqiy harakatlar kiradi. Ushbu aktlarning illokutiv mohiyati adresantning kelajakdagi harakati bilan bevosita bog'liq bo'lib, nutq orqali bildirilib, kommunikativ vaziyatda adresantni majburiyat subyekti sifatida belgilaydi. Syorl ta'kidicha, komissivlarda adresant dunyoni so'zlariga moslashtiradi, ya'ni kelgusidagi reallik uning hozirgi va'dasiga muvofiq bo'lishi kerak bo'ladi [3], masalan, "*I promise to come tomorrow (Men ertaga kelaman deb va'da beraman)*" komissiv akt bo'lib, adresant ertaga kelishga majburiyat olmoqda.

Bevosita komissiv nutqiy aktlarda so'zlovchining kommunikativ maqsadi grammatik va leksik vositalar orqali ochiq ifodalanadi. Bunda odatda performativ fe'llardan foydalaniladi.

Misollar:

1. *I promise to help you with your project.*
2. *I guarantee that the work will be completed on time.*
3. *I swear that I will tell the truth.*
4. *We undertake to provide quality service.*

Yuqoridagi misollarda *promise, guarantee, swear, undertake* kabi performativ fe'llar komissiv ma'noni bevosita ifodalab turibdi.

Bevosita komissivlarning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

- majburiyatning ochiq ifodalanishi;
- illokutiv maqsadning aniq ko'rinishi;
- kommunikativ noaniqlikning minimal darajada bo'lishi;
- rasmiy muloqotlarda keng qo'llanilishi.

Pragmatik jihatdan bunday aktlar tinglovchida yuqori darajadagi ishonch hosil qiladi. Chunki so'zlovchi o'z zimmasiga olgan harakatni aniq bayon etadi [4].

Bilvosita komissiv nutqiy aktlarda komissiv ma'no bevosita emas, balki kontekst, vaziyat va pragmatik inferensiya orqali yuzaga chiqadi. Bunday hollarda performativ fe'llar ishlatilmaydi, ammo tinglovchi gapning yashirin ma'nosini anglaydi.

Misollar:

1. *Don't worry. I'll take care of everything.*
2. *You can count on me.*
3. *Leave it to me.*
4. *I'll see what I can do.*
5. *I'll be there.*

Mazkur gaplarda so'zlovchi aniq *"I promise"* demasa-da, tinglovchi ularni va'da yoki majburiyat sifatida talqin qiladi.

Bilvosita komissivlarning muhim xususiyatlari:

- kontekstga kuchli bog'liqlik;
- pragmatik talqin zarurati;
- muloyimlik strategiyalarining mavjudligi;
- kommunikativ moslashuvchanlik.

Bilvosita komissivlar kundalik muloqotda bevosita komissivlarga qaraganda ko'proq uchraydi. Chunki ular suhbatni tabiiyroq va yumshoqroq tarzda tashkil etishga xizmat qiladi [5].

Bevosita va bilvosita komissiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik xususiyatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- Majburiyat yuklash funksiyasi. Komissivlarning asosiy funksiyasi so'zlovchini ma'lum bir harakatni bajarishga majbur qilishdir.

Misol: *I will finish the report tomorrow.* Bu yerda so'zlovchi hisobotni ertaga tugatish majburiyatini olmoqda.

- Ishonch hosil qilish funksiyasi. Komissiv aktlar tinglovchida ishonch va xotirjamlik hissini shakllantiradi.

Misol: *You have my word.* Ushbu ifoda tinglovchining shubhasini kamaytirish va ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- Ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash funksiyasi. Komissivlar shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Misol: *I will always support you.* Mazkur va'da muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy aloqani mustahkamlaydi.

- Persuaziv funksiya. Reklama va siyosiy diskursda komissivlar auditoriyani ishontrish vositasi sifatida qo'llanadi.

Misol: *We guarantee the best quality products.* Bu kabi ifodalar iste'molchilar ishonchini oshirishga qaratilgan.

- Strategik kommunikativ funksiya. Komissiv aktlar ma'lum kommunikativ maqsadlarga erishish uchun strategik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

Misol: *If you support this proposal, I will provide additional resources.* Bu yerda va'da ma'lum natijaga erishish maqsadida ishlatilgan.

Natijalar.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, muloqotda to'g'ridan-to'g'ri komissiv nutqiy aktlarga qaraganda bilvosita komissivlar ko'proq uchraydi. Buning bir necha pragmatik sababi bor. Birinchidan, bilvosita usul ko'pincha muloqotni yumshatadi: ochiq **"Men va'da beraman"** deyish ba'zan rasmiy yoki ortiqcha tuyulishi mumkin, ayniqsa kundalik suhbatda. Odamlar ko'p hollarda **"Hal qilishga harakat qilaman"**, **"Xafa bo'lmang, men albatta kelaman"** kabi yumshoqroq ifodalar bilan va'da berishni ma'qul ko'rishadi va ayni paytda odoblilik (politeness) tamoyillariga ham mos keladi [5]. Ikkinchidan, bilvosita va'da berish so'zlovchiga ma'lum darajada imkon qoldiradi: agar qandaydir sabab bilan va'dasini bajara olmasa, u ochiq va'da bergandek qat'iy majburiyat olmagan bo'ladi. Bunday strategiya, ayniqsa, noaniq vaziyatlarda yoki va'daning bajarilishi to'liq so'zlovchi nazoratida bo'lmaganda qo'llanadi (masalan, ob-havoga bog'liq va'dalar: **"I'll try to come, if traffic isn't too bad"** gapida so'zlovchi **"I promise"** demaydi, lekin majburiyat hissi mavjud).

Shu bilan birga, rasmiy va tantanali vaziyatlarda to'g'ridan-to'g'ri va'dalar qo'llanadi. Masalan, qasam va'daning kuchli shaklidir: **"I swear to tell the truth, the whole truth..."** jumlası suddagi va'da-qasam formulasi bo'lib, bunday hollarda aniq performativ fe'llar ishlatiladi. Yoki nikoh marosimidagi **"I give you my word"**, **"I promise to love and to cherish..."** kabi iboralar ham to'g'ridan-to'g'ri va rasmiy va'dalardir. Bunday vaziyatlarda institutsional nutq aktlari qo'llanilganligi sababli, ularning kuchi huquqiy yoki diniy nuqtai nazardan ham tasdiqlangan bo'ladi.

Pragmatik tadqiqotlarda komissiv aktlar muloyimlik nazariyasi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. P. Brown va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan muloyimlik nazariyasiga ko'ra, muloqot ishtirokchilari bir-birining ijtimoiy mavqegini hurmat qilishga intiladi [5]. Bilvosita komissivlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Masalan: **"I'll try to help you."** Mazkur gapdagi **try** fe'li so'zlovchining majburiyatini yumshatib, ehtiyotkorlik strategiyasini yuzaga chiqaradi. Shu sababli bilvosita komissivlar ko'pincha diplomatik nutqda, xizmat ko'rsatish sohalarida, biznes muzokaralarida va kundalik suhbatlarda uchraydi.

Bevosita va bilvosita komissivlarning qiyosiy tahlili:

Mezon	Bevosita komissiv	Bilvosita komissiv
Ifodalanish shakli	Ochiq	Yashirin
Performativ fe'l	Mavjud	Odatda mavjud emas
Pragmatik inferensiya	Kam talab etiladi	Kuchli talab etiladi
Kontekstga bog'liqlik	Nisbatan kam	Yuqori
Muloyimlik darajasi	O'rtacha	Yuqori
Rasmiy uslub	Keng qo'llanadi	Kamroq
Kundalik nutq	Kamroq	Ko'proq

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bevosita komissivlar aniqlik va rasmiylik bilan tavsiflansa, bilvosita komissivlar kommunikativ moslashuvchanlik hamda pragmatik boylikka ega [6]. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- Ingliz tilidagi komissiv nutqiy aktlar so'zlovchining kelajakdagi harakatga nisbatan majburiyatini ifodalaydi.
- Bevosita komissivlarda performativ fe'llar asosiy rol o'ynaydi.
- Bilvosita komissivlarda illokutiv ma'no kontekst orqali yuzaga chiqadi.
- Bilvosita komissivlar kundalik muloqotda ko'proq uchraydi.
- Komissivlarning pragmatik samaradorligi kommunikativ vaziyat va ijtimoiy munosabatlarga bog'liq.
- Muloyimlik strategiyalari bilvosita komissivlarning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

Xulosa.

Ingliz tilidagi komissiv nutqiy aktlar pragmalingsvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Ular so'zlovchining kelajakdagi harakatni bajarishga bo'lgan majburiyatini ifodalash orqali kommunikativ jarayonning samaradorligini ta'minlaydi. Bevosita komissivlar performativ fe'llar yordamida ochiq ifodalansa, bilvosita komissivlar kontekst va pragmatik inferensiya asosida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari komissiv aktlarning funksional-pragmatik xususiyatlari kommunikativ maqsad, ijtimoiy munosabatlar va muloyimlik strategiyalari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Komissiv nutqiy aktlar muloqot jarayonida muayyan vazifalarni bajaradi va ma'lum pragmatik qonuniyatlarga bo'ysunadi [6]. Ularning eng asosiy funksional xususiyati so'zlovchi va tinglovchi o'rtasida ijtimoiy majburiyat hamda ishonch munosabatini shakllantirishdir. Xususan, va'da berish orqali so'zlovchi nafaqat kelgusidagi harakatini va'da qiladi, balki shu ondan boshlab tinglovchi oldida ma'naviy-kommunikativ majburiyatni ham o'z zimmasiga oladi. Tinglovchi esa ushbu va'daga ishonch bildirishi natijasida muloqotning barqarorligi va samaradorligi ta'minlanadi [7]. Shuningdek, komissiv aktlar dialog ishtirokchilari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro mas'uliyatni mustahkamlash hamda keyingi kommunikativ harakatlarni muvofiqlashtirish kabi pragmatik vazifalarni bajaradi. Shu bois komissiv nutqiy aktlarning funksional-pragmatik xususiyatlari ularning ijtimoiy roli, kommunikativ maqsadi va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlar bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin J. L. *How to Do Things with Words*. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 167 p.
2. Searle J. R. *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.
3. Searle J. R. *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1979. – 174 p.
4. Leech G. N. *Principles of Pragmatics*. – London: Longman, 1983. – 250 p.
5. Brown P., Levinson S. C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
6. Levinson S. C. *Pragmatics*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. – 420 p.
7. Yule G. *Pragmatics*. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 138 p.